



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



CHIG‘ATOY ULUSINING TASHKIL TOPISHI.

Abdullayeva Muslima

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Tarix yo‘nalishi T2201U02 guruhi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Chingizzonning o‘g‘li Chig‘atoyxoning ulusi tashkil topishi jarayonlari va ilk xonlar olib borgan siyosati va o’sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot manbalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *Chingizxon, Chig‘atoj, ulus, Movarounnahr, xon, yasoq, Yalavoch.*

Kirish

Mustaqillik sharofati bilan tariximiz, milliy qadriyatlarimiz tiklandi. Vatanimiz tarixini o‘rganish milliy o‘zligimizni anglashga ko‘mak beradi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o‘zligini anglashi, qadimiylar tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizing merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrashi va diyorimizdagi barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashi zarur”, - deb yozadi.¹²⁰

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tariximiz haqida shunday deydi: “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, boblarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza olishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lishi katta ma’naviyat olib ketishi zarur”.¹²¹

O‘zbekiston hududi qadimgi davrlarda shakllangan yirik davlatlar va svilizatsiyalar markazi bo‘lib kelgan. O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi juda katta davrni o‘z ichiga oladi. Ammo ko‘plab tarixchilar O‘zbek davlatchiligi tarixi boshlang‘ich nuqtasini turli xil fiklar yoki manbalarga tayanib, davlatchilik tarixi shakllanish davri 3 mingyillik ya’ni 2700 yillik tarixga ega deb fikr yuritishadi. Akademik Ahmadali Asqarov esa o‘zbek davlatchiligi tarixi 4 mingyillik tarixga ega ekanligini isbotlagan edi. Mana shunday masalalar davlatchilik tarixini o‘rganishda turli xil savollar uyg‘otadi va yechim talab qiladi.

Mo‘g‘ullar imperiyasining Chingizzon tomonidan o‘g‘illariga suyurg‘ol tarzida bo‘lib bergani natijasida yuzaga kelgan uluslar davri, mintqa xalqlarining keyingi taqdirini belgilab bergen muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Chig‘atoj ulusi, ayniqsa, O‘rta Osiyo hududini qamrab olganligi bois, bu davrni chuqur o‘rganish xalqimizning o‘tmishini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini tushunishda katta ahamiyatga ega. Mo‘g‘ul istilosini va undan keyingi hukmronlik davri O‘rta Osiyoda nafaqat siyosiy o‘zgarishlarga, balki aholi

¹²⁰ Каримов И.А. Юқсан маънавият – енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. – 17-бет.

¹²¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgaikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 13-bet





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



demografiyasida, iqtisodiy munosabatlarda va hatto madaniy-ma’naviy hayotda ham sezilarli iz qoldirdi. Bu davrda vujudga kelgan davlatchilik an’analari, shaharsozlikning tiklanishi va yangi madaniy sintez jarayonlari keyingi asrlar uchun poydevor bo’ldi. Ayniqsa, Chig’atoy ulusida mahalliy xalqlar va mo’g’ul elitasining o’zaro munosabatlari, islom dining mintaqada mustahkamlanishi hamda turkiy madaniyatning rivojlanishi zamonaviy O’zbekiston davlatchiligining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, Chig’atoy ulusi davrini har tomonlama o’rganish, uning murakkab jarayonlarini ilmiy tahlil qilish bugungi kunda ham o’zining dolzarbligini yo’qotmagan.

Mavzuning o’rganilish darajasi. Mo’g’ul istilochilari davri manbalarga qanchalik boy bo’lmasin Rashididdinning¹²² asarlari ular orasida o’ziga xos alohida markaziy o’rin egallaydi. Qozonxonning topshirig’ini bajarib, u tarixchi sifatida “Yilnomalar majmuasi”ni yaratdi. U o’zining asarida mo’g’ullarning ko’chmanchi turmushi, marosimlari, urfodati, ma’naviyati va qonunlari haqida ajoyib ma’lumotlar keltirilgan. Asarda ko’chmanchi mo’g’ullar hukumronligi ostida qolgan, asosan o’troq aholili ko’p mamlakatlarning iqtisodiy, xo’jalik va siyosiy tarixiga oid ancha mufassil ma’lumotlar keltiriladi.

Chig’atoy ulusi tarixiga oid arab manbalaridan Ibn Batutaning¹²³, Nizomiddin Shomiyning¹²⁴, Sharafiddin Ali Yazdiyning¹²⁵, Mirzo Ulug’bekning¹²⁶, Mirzo Muhammad Haydarning¹²⁷ asarlarini ko’rishimiz mumkin.

Mirzo Ulug’bekning “To’rt ulus tarixi” asarida Chig’atoxon va undan keyin davlatni boshqargan ulus xonlarining barchasi keltirib o’tilgan va ularning siyosati haqida ham ma’lumotlar uchratishimiz mumkin.

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida ham Chig’atoy ulusi xonlari haqida ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Asarda asosan Chig’atoy ulusi xonlarining hukmronlik yillari va shajarasи keltirilgan.

Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari O’rta Osiyo, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkiston hududlarining ya’ni Chig’atoy ulusining XV asr oxirlari - XVI asr birinchi yarmidagi tarixi, madaniy, etnik munosabatlarini o’rganishda o’rganishda muhim manba hisoblanadi. Asarda o’sha davr madaniy-ma’naviy hayotiga oid ma’lumotlar ham ko’p bo’lib, mashhur shoirlar, olimlar, san’atkorlar hayoti va ijodi haqida g’oyat muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Natijalar va ularning tahlili

1219-1220-yillarda O’rta Osiyo Chingizzon tomonidan egallanadi va ushbu hudud Mo’g’uliston, Xitoyning bir qismi, Sharqiy Turkiston bilan birgalikda imperiya tarkibiga kiritiladi. 1224-yilda barcha bosib olingan o’lkalar Chingizzon vorislariga taqsimlab beriladi. Bunga sabab, bunday katta hududni faqat markazdan turib nazorat qilib

¹²² Рашид-ад-дин. Жоме ат-таворих. – Москва, 1952.

¹²³ Ибн Батута. Саёхатнома. – Тошкент, 2012.

¹²⁴ Nizomiddin Shomi. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 2019.

¹²⁵ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. - Тошкент: Камалак, 1994.

¹²⁶ Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1994.

¹²⁷ Мухаммад Хайдар. Тарихи рашидий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bo'lmasligida va bu hududlarni boshqarish uchun o'sha hududda ma'lum bir kuchning saqlanib turishi zarur edi. Irtish daryosidan g'arbda joylashgan barcha hududlar Jo'ji avlodiga beriladi. Xorazmnинг shimoli va Sirdaryoning quyi oqimi ham shu ulusga kirar edi. Chingizzonning ikkinchi farzandi Chig'atoyna esa Qashqar, Yettisuv, Movarounnahr yerlari tegdi.

Tarixga nazar tashlasak, Mo'g'ul imperiyasi boshqa ko'chmanchilar davlatlariga nisbatan uzoq muddat yashaganini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi shundaki ular Xitoy, Qashqar, Movarounnahr, Rossiya, Eron, Afg'oniston kabi o'troq hududlarni bo'ysundirgan edilar. Natijada Mo'g'ul davlati madaniy iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatga ega bo'ldi. Chig'atoyni boshqa uluslarga nisbatan qulay geografik hududda joylashgan edi. Bu esa ulusning uzoq vaqt yashashiga ko'mak berdi. Chig'atoyna in'om qilingan yerlar "Chig'atoyni" deb nomlangan. Chig'atoyni 1227-yildan boshlab rasman faoliyatini boshlaydi¹²⁸. Chig'atoxon ulusning asoschisi va birinchi xoni hisoblanadi. Chig'atoyni islam diniga qarshilik qilgan hukmdorlardan biridir. U Yaso qonunlariga amal qilgan, hatto shariatga zid bo'lgan qoidalarni bajarishni talab qilgan¹²⁹.

XIV asrning birinchi yarmida Chig'atoyni ulusining ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zgarishlar yuz beradi. Iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan hududlarni idora qilishga layoqatsiz bo'lgan chingiziyalar Movarounnahrni boshqarishni mahalliy zodagonlar ixtiyoriga topshirib, o'zlarini asosan o'lpon undirib daromad olib turish bilan cheklangan edilar. Dastlab Movarounnahr hududini Mahmud Yalavoch boshqardi. Uning davrida mamlakatda ikki hokimiyatchilik vujudga keladi. Mo'g'ul bosqoqlari ixtiyoridagi jangchilar Mahmud Yalavochga bo'ysunar edi¹³⁰. Lekin aholini ro'yhatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari dorug'aga va tamg'ach deb ataluvchi mo'g'ul amaldorlari qo'lida bo'lgan. Ammo bu Chig'atoyna yoqmaydi. To'lov va majburiyatlar miqdori soliqlardan ancha katta bo'lganligi sababli Buxoroda Mahmud Torobi boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tariladi. Mahmud Tarobi qo'zg'oloni xalqimiz ozodlik kurashlari tarixida o'ziga xos iz qoldirdi. U avvalo istilochilar va ular tomoniga o'tib ketgan mahalliy zodagonlarning umumiyligiga qarshi ko'tarilgan kurash edi. Bu ozodlik qo'zg'oloni mo'g'ul istilochilariga ular qanchalik shafqatsiz tuzum o'rnatmasinlar, xalq hamisha o'z ona vatani ozodligi yo'lida kurashdan cho'chimasligini namoyon qildi. Mo'g'ullar bu qo'zg'olondan so'ng bosqoqlar tomonidan yig'iladigan soliq va o'lponlarni tartibga keltirishga harakat qildilar. Mahmud Torobi qo'zg'olonidan keyin, Chig'atoyni qo'zg'oloni bostirishda sustkashlik qilishda ayblab Mahmud Yalavochni o'z amalidan chetlashtirib, uni Movarounnahrda chiqartirib yubordi. So'ng, Mahmud Yalavoch Pekin hokimi etib tayinlanadi. Uning o'rniiga o'g'li Ma'sudbek tayinlanadi. Ma'sudbek mog'ul hukmdorlari bilan til topishishga intilgan. Mo'g'ul hukmdorlari o'rtasidagi ziddiyatlardan unumli foydalangan. Iqtisodiy rivojlanish uchun sharoit yaratishga intilgan. Ma'sudbek 1271-yilda pul islohotini o'tkazib, og'irligi bir xil

¹²⁸ Караев О. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. - Бишкек: Киргизистан, 1995. – С.43.

¹²⁹ Mustafa Kafali. Cagatay hanligi. – Ankara: Berikan, 2005. – 150-sahife.

¹³⁰ Караев О. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. - Бишкек: Киргизистан, 1995. – С.43.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



vaznda bo'lgan kumush dirhamlarni muomalaga chiqaradi va uni davlatning pul birligiga aylantirishga muvaffaq bo'ladi. U hatto 1269-yilda Talos vodiysida bo'lgan qurultoyda mo'g'ul hukmdorlaridan o'troq aholi turmush tarziga aralashmaslikni talab qiladi va mamlakat hududida siyosiy barqarorlik iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni ta'minlaydi¹³¹.

Keyingi hukmdorlar davrida ham bir qancha islohotlar amalga oshiriladi. Yillar davomida mo'g'ullar orasida asta-sekin o'troqlashish jarayoni kuchaydi. Hokimiyatda o'troqlashgan mo'g'ul xonlari joy egallay boshladi. Bunday hukmdorlardan biri Kebekxon o'z hukmronligi davrida davlatini idora qilish, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida ma'muriy va pul islohotlarini o'tkazadi. U davlatni viloyatlarga, ya'ni mo'g'ulcha "tuman"larga bo'ladi, mahalliy hokim va bekliklarga moslashtirib idora uslubida olib boradi. Kebekxon tashkil qilgan tumanlar soni Samarqandda 7 ta, Farg'onada 9 ta bo'lgan. Tumanlardagi rahbarlik avvalgi mahalliy hukmdorlar maliklar, sadrlar o'rniga tayinlangan o'troqlashgan turk, mo'g'ul urug' boshliqlari qo'liga o'tadi. Undan tashqari Kebekxon o'z qarargohini Movarounnahrning o'zida qurishga jazm qilib, Nasaf shahridan 12-14 km uzoqlikda bir saroy qurdiradi. Saroy mo'g'ul tilida "qarshi" deb atalgan. Keyinchalik saroy atrofida boshqa imoratlarning qurilishi bilan bu yerda butun bir shahar barpo qilinadi. Saroyning mo'g'ulcha nomi unga nom bo'lib qoladi¹³².

Kebekxonning o'lkada tinchlik va osoyishtalik o'rnatish siyosatini uning ukasi Tarmashirinxon davom ettirdi. U islam dinini qabul qilib, uni davlat dini darajasiga ko'tardi¹³³. Tarmashirinxon isломни qabul qilgach, o'ziga "Alouddin" nomini qo'shib oldi. U xonlik qudratini yanada oshirib, 1329-yildagi harbiy safarlar natijasida ulus chegarasini Dehli sultonligi chegaralariga yetkazdi.

Bu davrning mashxur sayyohi Ibn Batuta ham Tarmashirinxonni buyuk hukmdorlar qatorida tilga oladi. Unga ko'ra, "Tarmashirinxon taqvodor va turkiyzabon hukmdor bo'lib, doimo bomdod va xufton namozlarini masjidda jamoat bilan o'qigan¹³⁴". Tarmashirinxon hukumronligi davrida hokimiyatni markazlashtirishga va harbiy yurishlar amalga oshirib, mamlakat hududini kengayirishga muvaffaq bo'lidi.

Kebekxon va Tarmashirinxon islohotlari mahalliy aholi manfaatlariga javob berib xalq xo'jaligining birmuncha rivojlanishiga olib kelgan bo'lsa-da, hokimiyatdan chetlatilgan mahalliy zodagonlar noroziligining kuchayishiga olib keldi. Shu bilan birga, islohotlar o'troqlashgan mo'g'ullar bilan ko'chmanchi mo'g'ullar o'rtasidagi ziddiyatni ham kuchaytirdi. Bunga qaramay, islohotlar mo'g'ullarning o'troqlashish jarayonini yanada tezlashtirdi. Mo'g'ullar mahalliy aholi madaniyati, urf-odatlari va tilini qabul qila boshladilar.

Tarmashirindan so'ng, hokimiyat tepasida bo'lgan Changshi, Bo'zan, Eson Temur, Muhammadlar davrida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida sezilarli

¹³¹ Mustafa Kafali. Cagatay hanligi. – Ankara: Berikan, 2005. – 170-bet.

¹³² Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. - Toshkent: Sharq, 2001. - 152-bet.

¹³³ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 72-bet.

¹³⁴ Ibrohimov N. Ibn Batuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. – Toshkent, 1993. – 69-bet.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘zgarishlar bo‘lgani yo‘q. Aksincha, mahalliy qabilalar hokimiyati, urug’ boshliqlarining ta’siri bu paytga kelib yanada kuchayib, Chig’atoy ulusi hokimiyati qudrati pasaya boshlaydi¹³⁵.

Keyingi hukmdorlardan Munkexon imperiyani boshqarishda bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, Movaraunnahrda ham. U o‘z urug’iga qilich ko’targan va o‘z xonadoniga o’tkir qilich sanchganlardan birinchisi edi. U O’qtoy, Guyukxon singari Chig’atoy ulusi hududlarini yana Ma’subekka topshirdi. Biroq soliq yig’imiga ehtiyotkorlik bilan yondashdi. Zero, 1238-yildagi buxorolik Mahmud Tarobiy singari qo’zg’olonlarni oldini olish maqsadida dorug’achi, bosqoq, choparlar, lochinbozlar va shu kabi mavqe’larga ega kishilar uchun payza hamda yorliq olish imtiyozlari ancha qisqardi. Mahalliy xalqning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda soliqlar joriy etildi. Biroq hamma hududlarda ham soliqlar bir xilda emasdi. Masalan, Xurosonda yiliga boy kishidan 7 dinor, kambag’aldan 1 dinor aksincha, Movaraunnahrda esa boy kishidan 10 dinor va kambag’aldan 1 dinor talab etilgan. Qopchur esa har yuz jon boshidan bir jon olingan. Yuz jon boshidan kam bo‘lganlardan qopchur olinmagan. Ushbu holat 60-yillarga qadar davom etdi. So’ng yana Chig’atoy xonadoni vakillari taxtni qaytib olishga intila boshladilar¹³⁶.

Xulosa

Chig’atoy ulusining tashkil topishi Markaziy Osiyo tarixida g‘oyat muhim voqeа bo‘lgan. Bu ulus XIII-XIV asrlarda siyosiy jihatdan mustaqil, iqtisodiy jihatdan boy, madaniy jihatdan rivojlangan hudud sifatida tanilgan. Ulusning asos solinishi Chingizxonning davlatni o‘g‘illari o‘rtasida taqsimlash siyosatiga asoslangan bo‘lib, bu holat nafaqat siyosiy tuzilmani, balki butun bir tarixiy davrni shakllantirgan. Chig’atoy ulusi o‘zining ilk davrlarida markaziy imperiyaga bo‘ysungan bo‘lsa-da, keyinchalik u o‘zining ichki siyosiy barqarorligi, boshqaruv tizimi, hududiy yaxlitligi va o‘ziga xos qonun-qoidalari bilan ajralib turgan. Ayniqsa, bu ulus tarkibida bo‘lgan hududlarda islom dinining keng tarqalishi, fors va turkiy tillarning madaniy hayotda ustuvorlik qilishi Chig’atoy ulusining o‘ziga xosligi va tarixiy ahamiyatini yanada oshirgan.

Xulosa qilib aytganda, Chig’atoy ulusi davri O’rta Osiyo xalqlari uchun mo’g‘ul hukmronligining siyosiy va iqtisodiy bosimiga qaramay, o‘z milliy o‘ziga xosligini, madaniy an’analarini va islomiy qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan davr bo’ldi.

¹³⁵ Мирзо Улубек. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 318-бет.

¹³⁶ Караев О. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. - Бишкек: Киргизистан, 1995. – С.43.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgaikda barpo etamiz. – Toshkent: O’zbekiston, 2016
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Рашид-ад-дин. Жоме ат-таворих. – Москва, 1952.
4. Ибн Баттута. Саёхатнома. – Тошкент, 2012.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. - Тошкент: Камалак, 1994.
7. Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1994.
8. Мухаммад Ҳайдар. Тарихи рашидий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
9. Караев О. Чагатайский улус. Государтсво Хайду. Могулистан. - Бишкек: Киргизистан, 1995.
10. Mustafa Kafali. Cagatay hanligi. – Ankara: Berikan, 2005.
11. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. - Toshkent: Sharq, 2001.
12. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O’qituvchi, 1994.
13. Ibrohimov N. Ibn Batuta va uning O’rta Osiyoga sayohati. – Toshkent, 1993.

